

AZIZ KITOBSEVAR O'QUVCHILAR!

Xabaringiz bor, sevimli adib bobomiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qiz talashgan o'smirlar» nomli asari chop etildi. Unda asar qahramonlari bo'lmish Olimjon, Beksulton, Zulcumor va Oysuluylarning tadbirkorlik, fermerlik, ishbilarmonlik, shuningdek, o'zaro munosabatlari haqida qiziqarli hikoya qilinadi. Romanni «Yangi asr avlodi» nashriyoti 1000 nusxada chop etdi. Albatta, bu kam. Shuni hisobga olib, mazkur asarni keyingi sonlarimizdan e'lon qila boshlaymiz. Zo'r asar o'qiyman desangiz, gazetamizni kuzatib boring. Obuna bo'lmaganlar kech qoldim, deb sira ranjimang. Obuna davom etmoqda!
Nashr ko'rsatkichimiz: 198

www.tongyulduzi.uz



2011-yil
21-fevral
N:8
(66809)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



Mavzuga qaytib...

«O'ZBEKISTON»GA MUKOFOT

*Quvonoq, sukko muxtlisim,
o'tibor bergan bo'lsangiz,
keyingi faytlarda gazstamis
tiniq, rangli nashr etilyapti.
Buning boisi nimada do
o'ylaysiz?*

Agar, sinchkov bo'lsangiz, darhol fikrlab, savolga javob topasiz. Siz sevgan gazetangiz qaysi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etiladi? Albatta, «O'zbekiston»-da! Tan olib aytish kerakki, mazkur nashriyot-matbaa ijodiy uyi rahbarlari har tomonlama sifatli mahsulot ishlab chiqarishga bundan bir necha yillar muqaddam e'tibor qaratishgan edi. Nima uchun? Sizlar aqlli bolasizlar: bugun jahon iqtisodiyoti matbaa korxonalari mahsulotlariga qanday talab qo'y-moqda? Juda katta talab. Buni o'zingiz ham yaxshi tushunasiz. Masalan, bozorga tushganingizda, sifatli daftarni, chiroyli bezakli kitobni, yaxshi yozadigan ruchkani tanlaysiz. Yo shunday emasmi? Bu o'quv qurollari nafaqat chiroyli, sifatli bo'lishi zarur, balki ular sog'lig'ingizga ham zarar yetkazmasligi kerak. Boshqa tomoni, xaridor sifatida o'zingiz ham aytishingiz mumkinki, qaysi korxonaning



mahsuloti sifatli bo'lsa, o'shanga e'tibor qaratasiz. Xullas, bugungi kunda «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi eng sifatli, ekologik jihatdan toza mahsulotlar chiqarmoqdaki, bu ijobiy sa'y-harakatlar nazardan chetda qolayotgani yo'q. Xususan, kuni kecha mazkur nashriyot-matbaa ijodiy uyiga Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning qaroriga binoan «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyiga «Xalqaro sifat menejmenti – ISO 9001:2008» sertifikatini berildi. Bu quvonoqliq voqea munosabati bilan o'tkazilgan yig'ilishda «O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi direktori Zoir ISAJONOV so'zga chiqib, bunday yuksak mukofotga loyiq topilganlari uchun tashkilot rahbarlariga o'z minnatdorchiligini bildirdi va: – Bu mukofot zimmamizga juda katta mas'uliyat yuklaydi, bu ishlarimizni bundan keyin ham jadal rivojlantiramiz, – deb alohida ta'kidladi.

Tahririyatdan:
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi rahbarlari va barcha ishchi-xizmatchilarini mukofot bilan quyilaymiz!

O'z muxbirlarimiz



NIMA YOMON?

Yomonlik yaxshilikning ziddi, inson kamoliga, ma'naviyat rivoji va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qila digan illat.

Sizlar ikki narsa haqida ko'p so'raysizlar:

1. Yomon odam faqat o'ziga ziyon yetkazadimi?

2. Yomon odamlar nega ko'p yashaydilar?

Mavridi kelib, bu to'g'rida sizlarga javob bermoqchimiz.

Biz har ikkala savolga javob topish uchun Amir Temur bobomizning «Temur tuzuklari» asariga murojaat qildik. Unda shunday so'zlar yozilgan ekan:

«Yomon taom badanga qanday ziyon yetkazsa, yomon xatti-harakat ham olamga shunday ta'sir ko'rsatadi».

Sharh:

Olimlarning fikriga ko'ra, nafaqat urush, vayronagar-chiliklar, balki yomon kimsalarning qahr-g'azab, fisqu-fasod, buzg'unchilik qilishlari Yer aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Shu bois ham, insonga shirinso'z bo'lish ko'proq yarashadi, deyilgan.

* * *

«Temur tuzuklari»da yana shunday so'zlarni uchratamiz:

«Zolim va fosiqlarning uzoq yashashlariga sabab shuki, o'zlaridagi bor yomonliklarni yuzaga chiqarib tugatmagunlaricha, Tangri ularga muhlat beradi. Negaki, ular qilgan ishlaridan afsuslanishlari uchun».

MUOMALA

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri muomala odobidir. U mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk

Zubayda
MAMATQULOVA,
o'z muxbirimiz

*Poytaxtimizning
Shayxontohur tumanidagi
82-maktabda o'tkazilgan
«Adabiyot dokadasi»
ham o'quvchilar va
mehmonlarda katta
taassurot uyg'otdi.*



G'AZALXONLAR MAKTABI

Adabiyotimizning ikki zabardast vakili bobokalonlarimiz Hazrat Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan adabiyot kechasiga maktab rahbari Nodira opa Abdurahmonova, o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Zulxumor Po'latova hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi Umida opa Mirzohidova va o'quvchilar puxta hozirlik ko'rishgani bir qarashdayoq sezildi. Maktab zali mavzuga oid rasmlar, bolalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar bilan bezatildi.

O'quvchilar Alisher Navoiy va Bobur g'azallaridan namunalar o'qib, ular asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlarini namoyish etdilar. Anjumanni ajib bir sokinlik qamrab oldi. E'tibor bilan qaragan odam tomoshabinlar yuzko'zida ulug' ajdodlarimizga bo'lgan faxr va iftixor tuyg'usini sezishlari tabiiy edi. O'quvchilar tadbirga katta ishtiyoq bilan tayyorlangani, ularning adabiyot va she'riyatga bo'lgan chanqoqligi, qiziqishi barchani birday ruhlantirdi.

G'azalnavis shoir Axtamqulining tadbir mehmoni bo'lishi davraga yanada zavq bag'ishladi.



Biz sinfdoshlar juda ahilmiz. Bu gapni aytish menga nihoyatda yoqimli. O'ttiz nafar qizlar, o'n ikki nafar o'g'il bolalar bo'lsa-da, hamisha bir-birimizning hurmatimizni saqlaymiz. Shu sababdan ham doimo yuqori ko'rsatkichlarga erishib kolyabmiz.

YUQUQLARIMIZ ASOSI



Yaqinda maktabimizda sinflararo o'tkazilgan «Bilimlar sinovi» bunga misoldir. Birgina fizika fanidan maktab bo'yicha sinfdoshlarimdan Shahnoza Valiyeva, zoologiya fanidan Diyora Hojimatova, ona tili va adabiyotdan Navro'za Shokirova, tarix fanidan Madina Nig'matullayeva kabi do'stlarim maktabning eng bilimdonlari degan nom oldilar.

Men ingliz tili va geografiya fanlaridan sinfda, rus tilidan maktab bo'yicha eng bilimdon bo'ldim. Husnixat yo'nalishida esa maktabda birinchilikni egallab, tuman bosqichida ham g'oliblikni qo'lga

kiritdim va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim.

Bu kabi muvaffaqiyatlar biz sinfdoshlarni yanada ruhlantirdi va bundan-da yuqori ko'rsatkichlarga erishishga imkon yaratdi. Yuquqlarimiz asosi, avvalo, ahil va inoqligimizda ekanligini tushundik. Buning uchun, albatta, ustozlarimiz - Gulnoza Jahongirova, Gulbahor Toshpo'latova, Nodira Haydarova hamda Hamida Yusupovaga katta rahmat, degim keladi.

Sevinch UZOQOVA,
Chilonzor tumanidagi 195-maktab o'quvchisi

QANI, AYTING, KIIM TOPQIR?

1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8. 9. 10.

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |

Savollar:
1. O'zbek milliy taomi.
2. Padar.
3. Baxt-...
4. Qimmatbaho metall.
5. Do'st, o'rtoq.
6. Yerning tabiiy yo'ldoshi.
7. Fazo, samo.
8. Meva turi.
9. Mehribon volida.
10. Uy hayvoni.

Asror RO'ZIBOYEV,
Qarshi tumanidagi 25-maktab o'quvchisi

JAJJILAR MUSHOIRASI



- So'z mulkingning sultoni, Hazrat Alisher Navoiyning boqiy misralarini dona-dona, ifodali o'qib, sahnada o'zining munosib avlod ekanligini namoyish etayotgan bu jajji bolalarga

qarab zavqlanmay bo'ladimi, - deydi Mirzo Ulug'bek tumani Xalq ta'limi bo'limi xodimi Lola opa Yo'ldosheva.

Anjumanda jajjilar Alisher Navoiy bobomizni qutlagani Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim siymosida davraga kirib kelishdi.

O'z navbatida Mirzo Ulug'bek tumanidagi 504-maktabgacha tarbiya muassasasining tarbiyalanuvchilari hamda tumanidagi 59 ta MTM tarbiyachilari mehmonlarni munosib kutib olishdi. Hikmatli so'zlardan, g'azal va ruboiylardan yod olib, barchani xushnud etishdi.

Tarbiyachi Hurmatoy Karimova, uslubchi Zarifa Azimova, mudira opa Muazzam G'ulomovanning e'tibori sabab ana shunday chiroyli kecha bo'lganini mehmonlar alohida ta'kidlashdi.

SIMBA NEGA XAFA BO'LDI?

Malikaxon Muxtorova Toshkent tumanidagi 3-maktabning 5-«V» sinfida o'qiydi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishni yaxshi ko'radi. Tahririyatimizga yuborgan rasmini «Simba nega xafa bo'ldi?» deb nomlabdi va izohlashingizni so'rabdi.

ODOBI

ingliz yozuvchisi Daniyel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinson Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinsonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yo-

riy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazzun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois, muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llik singari axloqiy me'yordalarda namoyon qiladi.

Abdulla SHER

- Bobojon, ayting, a'lo o'qishning siri nimada?
- Diqqat va intizomda.

Hamqishloqlarimning har biri o'z vazifasini aniq bilishadi.

Bu suratlar muallifi Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 94-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi Xurshida Ibragimova.

BO'LIB QOLGAN

JAN-U,



Aziz bolalar! Chustiy bobongiz nomini yaxshi bilsangiz kerak. U kishi ham maktabda o'qib yurgan yillaridan she'riyatga ixlos qo'yganlar.

III EI...

Asli u kishi Nabixon Xo'jayevdir. Chustda tug'ilganlari bois Chustiy taxallusini tanlaganlar. 1904-yil 20-fevralda oddiy to'quvchi oilasida dunyoga kelganlar. Otasi bilan birga dastgohda to'quvchilik bilan shug'ullanganlar. Bolalikdanoq kitob ularning doimiy hamrohi bo'lgan.

Chustiy bobo bolalarga juda mehribon edilar. Mahalla yoshlari u kishini kelayotganini ko'rib qolishsa, yugurib yo'lga chiqishardi. Ular bilan sira vaqtlarini ayamasdan qizg'in suhbat qurardilar. Gap orasida Chustiy bobo ulardan o'qiyotgan kitoblari haqida qiziqib

so'radilar.

– Dadam farzandlariga nisbatan nihoyatda e'tiborli inson edilar, – deb eslaydi qizlari Nozimaxon Xo'jayeva.

– Maktabda olgan baholarimizni doim so'rab-surishtirardilar. Bo'sh vaqtlarida, uyga berilgan darslarni, ayniqsa, adabiyot saboqlari-yu matematikadan misol va masalalarni yechishda bizga yordam berar edilar.

Haqiqatan ham juda bolajon odam edilar. Nevaralarini jon dillaridan erkalab, «Nabiralaringa» degan she'rlarida quyidagi misralar bor:

*Kerakdir tuz, kerak bo'lgay shakar ham,
Va lekin tuzni qo'shmangiz shakarga.
Ota-ona rizosi malhamijon,
Kerak bu dori har qanday basharga.*

*Qat'iylik ba'zi vaqtda yaxshi, ammo,
Va-lek ko'proq yetaklaydur xatarga.
Amal aylab bu so'zga jon-u dildan
Qadam tashlang zafarlardan zafarga.*

*Duo aylay, duo bo'lsin ijobat,
Jahonga o'xshangiz, shams-u qamarga.
Mudom iqbol-u baxtingiz daraxti,
So'limay gullasin, to'lsin samarga.*

*So'zimming siz uchun mingdan biri bu,
Alishmangiz buni dunyoda zarga.
Eshiting: Nazira, Chustiy bobongiz,
Itovat aylangiz der keksalarga.*

Shoirming yaratgan g'azallari rang-barangligi bilan ajralib turadi. Uning ko'proq qismi ona-Vatan, axloq-odob, do'stlik mavzusini tashkil etadi.

Bularga misol qilib: «Xalq madhiyasi», «Vatan ash'ori», «Yaxshilardan yaxshisiz», «Vatan ishq», «O'zbekiston rohati» kabi she'rlarini kel-

tirish mumkin.

Chustiy bobongiz 1983-yil 80 yoshda o'zi tug'ilib o'sgan Chust shahrida vafot etdi. U kishidan bizga bir dunyo o'ynoqi g'azallar hamda Chustiy devoni qoldi.

**Mansur
INOMXONOV,
o'z muxbirimiz**



*Yurtim, sening bu dunyoda
Qiyosingni topolmadim.
Go'zalliging madh etishga
Bir iliq so'z yozolmadim.*

*Sen hayotim mazmunisan,
Sen-la zavqim oshadi.
Hatto qushlar erta bahor,
Senga tomon shoshadi.*

**Dadaxon RAIMBOYEV,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
31-ixtisoslashtirilgan umumta'lim
maktabining 3-sinf o'quvchisi**

TONG



*Mittigina yulduzlar,
Bulut ortiga o'tar.
Oy ham biroz toliqib,
Orom olgani ketar.*

*Qorong'ulik tarqalib,
Quyosh chiqadi asta.
Butun borliq uyg'onib,
Tong ham otar birpasda.*

**Sarvinoz TOJIYEVA,
O'zMU qoshidagi 2-akademik litsey
talabasi**



Charaqlab turgan ko'zlar quvonchi qalbimizdagi hayajonni yanada oshirib, bizni beixtiyor bolalik olamiga yetakladi. Eh, bu olamdagi shodlig-u quvonchni bir ko'rsangiz edi... Olti oy mobaynida bu kunni orziqib kutgan bolajonlar barcha o'rganganlarini ota-onalari-yu ustozlariga «ko'z-ko'z» qilishga oshiqishardi.

Yunusobod tumanidagi 274-maktabning 1-«A» sinf o'quvchilari tayyorlagan savodxonlik bayrami har galgidan o'zgachaligi bilan barchaning e'tiborini tortdi. Maktabda birinchi marotaba ochilgan rus sinfi o'quvchilari ustozlari Nargiza opa Azizovadan saboq olib, oz fursatda rus tilini o'rganib olishgani tahsinga sazovor edi.

Kichkintoylarning ikki tilda ona, Vatan, kitob haqida she'rlar yod olishlariga, qo'shiq kuylashlariga Buratinoning ham juda havasi keldi. Chunki u faqat beshgacha sanashni bilar ekan-da!.. Jamilaxon Usmo-nova, Elmurod Rixsiboyev, Humoyun Sayfullayev, Marjona Habibova, Salohiddin G'ulomov, Shahlo Zoi-rova kabi o'quvchilarning raqslariga mahliyo bo'lib, uning o'zi ham oltin kalitchasini o'ynatib, raqsga tushib ketdi. O'quvchilar «Palov», «Kalinka» raqslari orqali milliy urf-

BOLALIK OLAMI QUVONCHLARI



odatlari bilan bir qatorda, o'zga xalqlar madaniyatini ham o'rganib borayotganliklarini yana bir bor isbotlashdi.

– Bu sinf o'quvchilarining barchasi iqtidorli, dono ekanliklari tayyorlagan tadbirlaridan ham ko'rinish turibdi. Ularni savodxonlik bayramlari bilan tabriklayman, – deya maktab direktori Sayfulla aka Mahkamov kichkintoylarni qutladi-lar.

Farzandlari bayramidan bir olam zavq olgan buvijon-u onajonlar o'g'il-qizlarining hozirjavobliklari, olgan bilimlari uchun sinf rahbari Nargiza Azizovaga minnatdorchilik bildirdilar.

Biz ham biri-biridan aqlli, dono va ziyrak kichkintoylarga ofarin deb, ular bilan xayrlashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi

DIQQAT, YANGI RUKN!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 22-dekabrda «2011-2015-yillarda har bir mahalla, daha va mikrotumanda bolalar maydonchalarini tiklash va tashkil etish dasturi»ga muvofiq

«Bolalar maydonchalarida» nomli yangi rukn tashkil qilindi.

Muntazam ravishda berib boriladigan ushbu rukn ostida ibratli bolalar maydonchalari haqida maqolalar, fotolavhalar, shuningdek, bu

boradagi muammolar, ayrim kamchiliklar xususida ham fikr yuritiladi.

Qadrli o'quvchilar, siz bo'sh vaqtingizda qayerda dam olasiz? Mahallangiz, uyingiz atrofida bolalar maydonchalari qurilganmi? Qurilgan bo'lsa, u yerdagi shart-sharoitlardan ko'nglingiz to'ladimi? Tengdoshlaringiz, uka va singillaringiz bunday sharoitlarning qadriga yetishyaptimi? Shular haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Quyida ana shunday maydonchalardan biri haqida hikoya qilamiz.



bu maydonchani foydasi bo'lsa bordirki, zarari yo'qligini anglab yetishdi chog'i, ruxsat berishdi. Hozirda bog'imizda quyon, o'rdak, xo'roz, sisarka, tovuq, qirg'ovul, kaptar kabi parranda-yu darrandalar bor. Bog'chaning o'rtasidagi hovuzda katta-kichik baliqlar suzib yurishibdi. Yaqin atrofdagi mahallalardan, qo'shni uylardan bolajonlar kelib, ularni tomosha qilishadi, yemish berishadi. 243-maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari, bog'cha tarbiyalanuvchilari ustozlari, tarbiyachilari hamrohligida bu yerga tez-tez sayrga kelib turishadi...

Onaxonning so'zlarini tinglab, maydonchani ko'rish uchun pastga tushar ekanman, xayolan mahallamizdagi noxush bir manzara ko'z o'ngimdan o'tdi:

O'tgan yili mahallamizga kiraverishda bolalar maydonchasi qad rostladi. U yerdagi turli

ligimiz, loqayd-ligimiz mevasi emasmikin bu?!

Shular haqida o'ylab o'tirib, 3-uy yonidagi «Bolalar

maydonchasi»ning yanada gavjumlashib qolganini sezmay qolibman. Kimdir suv sepyapti, kimdir supuryapti, yana kimdir jonivorlarni ovqatlantiryapti. Surishtirsam, ular bu yumushlarni bironing topshirig'i bilan emas, ixtiyoriy ravishda qilisharkan. Yoshroq kelinlar bolajonlari o'ynaydigan maydonchani orasta qilib turisharkan. Abdulla ota esa har yili arg'imchoqlarni bo'yatib, singan-chiqqan yerlarini ta'mirlatib qo'yarkanlar. E'tiborlisi, ular bu ishlarni o'z mablag'lari evaziga savob uchun qilarkanlar.

– Bu maydonchani men ham juda yaxshi ko'raman, – deydi Abdulla otaning nabirasi 243-maktabning 3-sinf o'quvchisi Madina Shokiraliyeva. – Katta tanaffusda, darsdan keyin dugonalarim bilan bu yerga kelib, arg'imchoqlar uchamiz, ayvonchada suhbatlashib, jonivorlarni tomosha qilib o'tiramiz. Menga quyonlar, dugonamga esa o'rdaklar juda yoqadi. Yaqinda «Mening sevimli jonivorim» mavzuidagi inshoimda ham quyonchalarim haqida yozdim. Maktabimiz bitiruvchilari «So'nggi qo'ng'iroq»da uchrirish uchun bobojonimdan kabutarlarini so'rab turishadi...

Shu o'rinda bir mushohada:

Bolalar maydonchalarining farzandlarimiz tarbiyasida tutgan o'rni beqiyos, albatta. Shuningdek, ular salomatligini mustahkamlashning muhim omili sanaladi. Bola uzzu-kun televizor yoki kompyuter qarshisida o'tirmay, ochiq havoda turli harakatli o'yinlar o'ynasa, sog'lom bo'lib ulg'ayadi. Agar bunday maydonchalarda mo'jazzgina hayvonot bog'lari ham bo'lsa, ular bolajonlarning murg'ak qalblarida hayvonot va nabotot olamiga mehr uyg'otishga xizmat qilgan bo'lardi.

Abdulla ota singari serhimmat insonlar bor bo'lsin, bolalar maydonchalari mahallalarimiz, dahalarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shaversin!

Feruza JALILOVA



HIMMATINGIZGA BALLI!

Poytaxtimizning so'lim Beruniy ko'chasida ko'p qavatli uylar talaygina. Lekin ulardan biri, aniqrog'i, uying o'zi emas, uning oldidagi maydonchasi ko'pchilikning diqqatini tortadi. Men ham bu 3-uyning yonidan ko'p o'taman, uning atrofi doimo bolajonlar bilan gavjum bo'lishining guvohi bo'laman.

ABDULLA OTA!


o'yinchoqlar-u arg'imchoqlarni, oromkursilar-u jonivorlarning haykalcularini ko'rib, yosh-u qari birdek quvondi. Ayniqsa, bolajonlarning suyunganlarini bir ko'rsangiz edi... Maktabdan, bog'chadan qaytishda bir bor arg'imchoq uchib ketmasalar, ko'ngillari joyiga tushmasdi. Yozning issiq kunlarini ana shu so'lim go'shada o'tkazishdi hisob...

Yaqinda yo'lim tushib o'sha tarafdagi o'tgandim. Maydonchani bugungi kundagi ayanchli ahvolini ko'rib, kayfiyatim buzildi: arg'imchoqlar qiyshayib, osilib yotibdi, o'rindiqlarning yog'ochlari yo'q, «toshbaqa»ning rangi o'chgan, «jirafa»ning dumi singan... O'yinqaroq bolalar sho'xlik qilishgandir-da, deyingiz mumkin. Lekin, biz kattalar-chi, nahotki shunday gavjum joyda ularni tartibga chaqiradigan odam bo'lmasa?! Qolaversa, farzandlarimizga jamoat mulkini asrash, avaylash lozimligi haqida yetarlicha tarbiya bermaganimiz, e'tiborsiz-

Bir kuni qiziqib, maydonchaga yaqin bordim.

U yerdagi mo'jazzgina hayvonot bog'ini, jajjigina qizaloqning oppoq, momiq quyonchalarni sabzi bilan siylayotganini ko'rib, hayratim yanada ortdi. Panjaradagi «Hayvonot bog'iga» kirish haqi «Assalому alaykum» degan uzoq yugva ko'zim tushib, arg'imchoq uchayotgan bolakaylardan bu hayvonot bog'ini kim barpo qilgan, deb so'radim. 4-qavatda yashaydigan Abdulla bobomiz, deya javob berishdi ular. Bunday xayrli ishga qo'l urgan Abdulla ota Oxunjonov bilan ikki og'iz suhbatlashish niyatida uylariga borsam, biroz kechikibman, otaxon xizmatga ketibdilar. U kishining umr yo'ldoshi – yuzlaridan nur yog'ilib turgan Koshiba aya meni iliq qarshi oldilar. Bolalar maydonchasining barpo etilishi haqida so'raganimda, gapni ancha uzoqdan boshladilar:

– Bu uyga yangi ko'chib kelgan yillarimiz uning atrofidagi bo'sh maydoncha umr yo'ldoshimning e'tiborlarini tortdi. Bolalikdanoq tabiatga, jonivorlarga mehrli bo'lganlaridanmi, shu yerda bir maydoncha yaratam, nabiralarimiz, qo'ni-qo'shnilarning farzandlari o'ynab yurisharmidi, deya astoydil ishga kirishib ketdilar. Bolajonlar uchun arg'imchoqlar, o'yin o'yinshlari uchun oromkursilar qurdirdilar. Uncha katta bo'lmagan maydonchani atrofni o'rab, mo'jazzgina hayvonot bog'i barpo qildilar. Avvaliga bu ishlari biroz to'siqlarga ham uchradi. Keyinchalik



Aziz bolalar!

Qadam Sayid MUROD bobongiz Sizlar uchun juda ko'p she'rlar, ertak-dostonlar yozayotgan sermahsul ijodkorlardan biri hisoblanadi. Bir yaxshi gap topsalar, darhol tahririyatimizga kelib o'rtoqlashadilar. Sizlar u kishining «Zafar, zargar va zar», «Tun va tong xonliklari haqida ertak», «Xolis niyat», «Sabab va oqibat» kabi kitoblari bilan tanishsiz.

U kishi Siz uchun «Kuy sehri» nomli yangi ertak-doston bitdilar. Yangi asar muborak! Sizning nomingizdan u kishini oltimish yoshlari bilan muborakbod etib, ijodiy parvozlar tilaymiz.

TAHRIRIYAT



Qadam Sayid MUROD

KUY SEHRI

(Ertak-dostonan parcha)

Uzoqlardan eshitilib
Nayning sadosi,
Bizni maftun etib qo'ydi
Zavqli navosi.

Ot yeldirib topib keldik
Bu yerni arang,
Jon og'ajon, chalib bering,
Zinhor yo'q demang!...

So'ngra yana davom etib
Shu qiz so'zini,
Tanitibdi hamrohini
Hamda o'zini.

Birozgina imyanibmi
Qizarib yuzi:
– Men, – debdi u, – Malikaman
Xonning yolg'izi.

Bu qiz esa kanizagim
Emas begona.
Kecha-kunduz birgadirmiz
Sirdosh, dugona.



Kanizak ham uning so'zin
Tasdiq etibdi,
Cho'pon nayin qo'lga olib
Chala ketibdi...

Qizlar dilin rom etibdi
Kuyllarning sehri,
Malikaning qo'ychivonga
Tushibdi mehri.

Debdi: – Rahmat, shod etdingiz
Bizni beqiyos.
Yo'q demassiz kelsak yana
Aylab iltimos.

Cho'pon debdi: – Bosh ustiga,
Kelaveringlar,
Men roziman kuyim sizga
Xush yoqsa agar...

* * *

Har kungiday cho'pon yana
Nayini chalib –
Xarsang toshda o'ltirarkan
Hordiq chiqarib.

Birdan shu payt olapari
Hura boshlabdi,
Cho'pon labdan nayin olib
Nazar tashlabdi.

Ko'rinibdi yana o'sha
Ikki chavandoz,
Ikki saman ot ustida
Ikki sarvinoz.
Peshvoz chiqib cho'pon bu gal
Kutib olibdi,
Ularni shod etmoq uchun
Kuyllar chalibdi.

Bu voqea davom etib
Tag'in necha bor,
Qizlar kelib-ketibdilar
Takror-u takror...

* * *

Devorning ham qulog'i bor
Deganlariday...
Yaylovdagi shirin suhbat,
Jaranglangan nay.

Ovozasi saroyga ham
Yetib boribdi.
Bu xabardan xon dahshatga
Tushib qolibdi.

SUYANCHIQLAR

(Qatra)

Mo'minjonning qora iti va ola mushugi bor edi. Ko'chalarda ko'z-ko'z qilib, ikkalasini ergashtirib yurardi. Birinibiridan kam ko'rmay, uyimning posboni bo'ladi, deb astoydil ishonardi.

Bir kuni Mo'minjon o'rtoqlari bilan futbol o'ynashga bormoqchi edi, darvoza kalitini topa olmadi. Shunda iti bilan mushugini uyga qorovul qilib, o'zi futbol o'ynashga ketdi. Biroq, Mo'minjon ketgach, it bilan mushukning oralarida mojaro chiqdi.

It mushukka qarab:

– Sen uyda poyloqchilik qil, men ko'chalarni aylanib kelaman, – dedi. Mushukning tuklari tikka bo'lib:

– Nimaga men qolishim kerak ekan? – dedi.

It vovillab:

– Surbet, – deya mushukni haqorat qildi.

Mushuk o'tkir timoqlari bilan itning yuziga chang soldi. It jahl bilan mushukni quva ketdi. Hovli ag'dar-to'ntar bo'ldi. Ovozlarining boricha miyovlashib-u hurib quvlashganlaricha ko'chaga chiqishdi. Darvoza ochiq, katta hovli qarovsiz qoldi. Shu orada Mo'minjon ham uyga qaytdi. Hovlidagi tartibsizlikni ko'rib, xafa bo'ldi. Iti bilan mushugiga ishongan edi, afsuski, ishonchini oqlashmadi. To'kilgan-sochilganlarni yig'ib, hovlini tartibga keltirganda, bo'yin tuklari yulingan mushugi kirib keldi. Birozdan keyin tumshuq qismi timdalangan iti hech narsa bo'lmaganday Mo'minjonning oyoqlariga osildi. Mo'minjonning esa hafsalasi pir bo'lib, itini uyasiga bog'lab qo'ydi. Asli joyi shu ekan, unga bekorga ishonibdi, shekilli. Mushukni hovli etagidagi bosimaga qamadi. Mo'minjon ularga suyangan edi, ulardan suyanchiq chiqmadi...

Barno RUSTAMOVA



ADABIYOT BAYRAMI

Hamza tumanidagi 198-maktabda o'tkazilgan tadbir ana shunday nomlandi. Ulug' allomalarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan adabiyot bayrami o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

«Teatr studiyasi» to'garagi a'zolari ijrosidagi «Boburnoma», «Farhod va Shirin» kichik sahna ko'rinishlari, maromiga yetkazib o'qilgan g'azallar kishini yanada zavqlantirdi.

Adabiyot bayramining qiziqarli va esda qolarli o'tishi maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Mahbuba Rashidova, Zuhra Abidova kabi ustozlarning tinimsiz mehnatlari samarasi bo'ldi.

Mazkur bayram tufayli o'quvchilar ma'naviyatimiz xazinasidan, adabiyotimiz durdonalaridan bahramand bo'lganlaridan qalblari quvonchga to'ldi.

Alisher ABDULLAJONOV

SAXOVATLI TADBIRKOR

G'allaorol tumanidagi 25-umumta'lim maktabidan ham taniqli sportchilar yetishib chiqishi ni G'afur G'ulom nomli mahalla ahli ko'pdan orzu qilardi. Shu maqsad-da mahallada yashovchi tadbirkor Qodir Zoirov bundan besh yil avval maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda boks to'garagi tashkil etish tashabbusi bilan chiqqan edi.

Qisqa vaqt ichida yigirma nafar yosh bokschini saxovatli homiyimiz zarur sport anjomlari, kiyim-bosh bilan ta'minladi. Murabbiylikka tayinlangan Sherzod Eshquvvatovga esa tadbirkor o'z hisobidan oylik maosh belgiladi. U yerdagi yosh sportchilar bilan tez-tez uchrashib, ularni sportga jalb etayotgan tadbirkorning faoliyatidan, ayniqsa, ota-onalar mamnun.

Tadbirkorning ibratli tashabbusi, savob ishi shu mahallada yashovchi

aka-uka Sharof va Karim Ahmedovlar, Shakarboy va Sharof Umarovlarni ham bee'tibor qoldirmadi. Ular maktab sport zalini ta'mirlashga astoydil kirishdilar. Bunday xayrli ishning boshlanishi ota-onalarni-da yordamga chorladi. Abdurahim Jonibekov va Rashid Zolav kabi insonlarning 50 ming so'mdan ajratgan mablag'lari esa maktab sport zalini jihozlashga qo'l keldi. Shunday qilib, g'allaorollik sportsevar bolalar maktabda havas qilgudek sport zaliga ega bo'ldilar.

«UMID NIHOLLARI»NING UMIDI

2009-2010-yil g'allaorollik sportchi yoshlar va ularning murabbiylari uchun omadli keldi. Chunonchi, viloyat bosqichidagi boks, qo'l to'pi va basketbol musobaqalarida bolalarning yutuqlari tahsinga sazovordir.

Mazkur bilim dargohining 9-«A» sinf o'quvchisi Aziz Abdujabborov 48 kg. vazn toifasida yosh bokschilar bellashuvining respublika bosqichida birinchilikni qo'lga

kiritti. Uning tengdoshlaridan Jahongir Isломov, Oybek Abdujabborov ham respublikada faxrli o'rinlarni egallashdi. Xislat Abdosov xalqaro xotira turniriga bag'ishlab o'tkazilgan mamlakat birinчилиgida maktabning basketbolchi qizlari uchinchi o'rinni band etishdi. Musobaqalarda Yorqinoy Husanova, Gulnora Ravshanova va Nazokat Ahmadjonova tengdoshlari orasida o'z mahoratlarini namoyon etdilar.

SOG'LOM BO'LAYDESANGIZ...



kar Nazarova o'tgan yili mamlakat birinчилиgida yengil atletika bahslarida oltin medall bo'ldi. Uning dugonalari Roziya Eshqulova, Zilola Nishonova, sinfdoshi Murodillo Abdusattorov ham yengil atletika turi bo'yicha respublika musobaqalarida ishtirok etishdi. Bolalar iste'dodi, murabbiy mehnati samarasi o'laroq ularni tez orada nufuzli musobaqalarda uchratishimizga ishonдик.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumani

TUMANNING SOG'LOM/JON - POLVON/JONLARI

Xalq ta'limi a'lochisi, murabbiy Sobir Tohirov rahbarligidagi 1-4-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan «Sog'lomjon-polvonjon» guruhi a'zolari viloyatda faxrli o'rinni egallashga muvaffaq bo'lishdi. Shuningdek, tumandagi 56-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Hul-

«BARKAMOL AVLOD - 2011»

YOSHLARIMIZ KAMOLATI

Qarshi pedagogika kollejida to'rt mingdan ziyod o'quvchi tahsil oladi. Shulardan jismoniy tarbiya va sport bo'limida o'qiydiganlari soni 385 nafarni tashkil etadi. Ularning 95 nafari qizlardan iborat.

Biz jismoniy tarbiya va sport bo'limi boshlig'i Botir aka BOYMURODOV bilan shu yili Surxondaryo viloyatida o'tadigan «Barkamol avlod» sport musobaqalariga tayyorgarlik jarayonlari haqida muxtasar suhbatlashdik.

Keling, shu o'rinda Botir aka haqida ikki og'iz gapirib o'taylik: Milliy kurash bo'yicha respublika toifasidagi hakam, faxriylar o'rtasida o'tgan qator turnirlar g'olibi. Termiz shahrida o'tgan jahon chempionatida faxriylar o'rtasida 71 kg. vazn toifasida bronza medaliga erishgan. O'tgan yili sambo bo'yicha Respublika chempioni bo'ldi. Ayni damda Termizda o'tadigan «Barkamol avlod - 2011» sport musobaqalariga qashqadaryolik sportchilarni tayyorlamoqda.

- Botir aka, «Barkamol avlod» sport musobaqasining viloyat bosqichidan keyin xulosalaringiz qanday?

- Yanvar oyida maskanimizda kurash bo'yicha musobaqalarning viloyat bosqichida bo'lib o'tdi. Unda turli ta'lim muassasalaridan 350 nafarga yaqin polvon ishtirok etdi. 60, 66, 71 va + 71kg. vazn toifalarida kechgan bellashuvlar juda keskin o'tdi. Dekabr oyidagi saralash musobaqasida

g'olib bo'lgan ba'zi kurashchilar bu safar ham sovrinli o'rinlarni egallashdi. Demak, mashg'ulotlar bejiz ketmayapti. Termizga boradigan tarkib haqida yakuniy to'xtamga kelganimizcha yo'q. Bir oylik o'quv- mashg'ulot yig'inidan so'ng eng yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lganlarni respublika bosqichiga olib boramiz.

- Termizga borishi mumkin bo'lgan o'quvchilaringizning fikrlari bilan o'rtoqlashsak. Taxminan ular necha nafarni tashkil etadi?

- Kurash bo'yicha Behzod Eshmurodov, Ilhom Rasulov, Shamsinur Eshmurodov, Madiyov Xondayev, stol tennis bo'yicha Muxlisa To'ychiyeva, yengil atletikachi Zarifa Normamatova viloyat bosqichida sovrindor bo'lib, hozir mashq-larga zo'r berishgan. Ular o'quv-mashg'ulot yig'inlaridan so'ng asosiy tarkibga kirishlari mumkin.

Suhbatimizga qo'shilgan yosh sportchilar qabllarida

Surxon vohasida Qashqadaryo sharaflini mardona himoya qilish ishtiyoqi balandligini yashirib o'tirishmadi.

- Behzod ESHMURODOV, kurashchi;
- Termizda o'tadigan sport musobaqalarida viloyatimiz sharaflini ishonchli himoya qilishni orzu qilaman.

- Muxlisa TO'YCHIYeva, stol tennis bilan shug'ullanadi;
- Tolimarjon shaharchasidanman. 12 yoshimdan buyon stol tennis bilan shug'ullanaman.
«Barkamol avlod» musobaqalarining saralash bosqichida yaxshi ishtirok etdim. Termizdagi bahslar keskin o'tishi aniq. Shu bois, hozirda mashg'ulotlarni kuchaytirganmiz.

Zarifa NORMATOVA, yengil atletikachi;

- G'uzor tumanining Xalqobod qishlog'idanman. «Barkamol avlod»ning viloyat bosqichida uzunlikka sakrash va 100 metrga yugurish bo'yicha natijalarim yaxshi bo'ldi. Niyatim, katta g'alabani Surxonda nishonlash.



Kollejning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Bahrom Jumayev ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan sportsevar o'quvchilarga yaratilayotgan sharoitlar haqida shunday deydi:

- Tahsil oluvchilarning ko'pchiligini qizlar tashkil etadi. Maqsadimiz, viloyatimiz xotin-qizlari orasida sportni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shish. Shu bois, bilim dargohi rahbari Rustam Rajabov kollejdagi tadbirlarga katta e'tibor qaratadi. Jismoniy tarbiya va bolalar sporti kafedrasida kurash bo'yicha bir necha bor O'zbekiston chempioni, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozongan Obida Allado'stova, Botir Boymurodov, tajribali mutaxassis, kafedra mudiri Muzaffar Nuraliyev, jismoniy tarbiya bilimdoni Sardor Mahmudov kabi o'z kasbining ustalari yoshlarga ustozlik qilmoqdalar.

Shunday ustozlar qo'lida kamol topayotgan o'g'il-qizlarimiz ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lib ulg'ayishlari shubhasiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

YAXSHI



«Sharq» nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan urutlik iste'dodli bolalar shoiri, mohir pedagog Xudoyberdi Komilovning «Kim qanday uxlaydi?» kitobi nashrdan chiqarildi.

KITOBLAR BOR!

KIM QANDAY UXLAYDI?

Bu kitobcha har bir o'quvchining sevimli asariga aylanishga arziydi. Chunki unga shoirming o'itidan ortiq eng sara, biri-biridan qiziq she'rlari jamlangan. Muallif qalb kechinmalari, tuyg'ularini samimiy satrlarga jo eta olgan. Yumor beozorligi, zo'rma-zo'rakilikdan yiroqligi bilan barchaga darrov «yuqadi». Ayniqsa, «Qorovul» nomli she'r shu o'rinda e'tiborga sazovor:

—Ur-re!

Yutdik futboldan

Bugun - 5-«J»ni.

Maqtanadi Matqovul

Yig'olmay lab-lunjini.

Xol kiritdi ikkita,

Jasur urdi uchta gol.

O'tkazmadik bitta ham,

Hisob bo'ldi besh-u nol.

—Xo'sh, ne qilding sen o'zing,

Ayt-chi bizga, Matqovul?

—Menmi, o'yinchilarning

Papkasiga qorovul!

Abdurahmon AKBAR

Kitobchadagi «Bo'rilar», «G'aflat haqida ertak» nomli she'rlar ham mushohadaga boyligi, ko'lamdorligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Bu she'rlar orqali shoirming hayotga munosabati, kitobxonni ogohlikka, hushyorlikka da'vat etishi o'quvchini befarq qoldirmaydi. Ozodlik, mustaqillikning ulug' ne'mat ekani, uni qadrlash, asrash har bir yurtdoshlarimizning muqaddas burchi ekani timsollar orqali ochib beriladi. Shoir yozganidek:

«Har neki bor jahonda

Ozodlikning oshig'i»dir.

Kitobchani qoniqish bilan o'qib chiqib, uning bejiz «Kim qanday uxlaydi?» deb nomlanganini angladim. Yurt tinch, el obod, farovon va hur ekan, yurt egalarining uyqusi buzilmaydi, tinchlik, osudalik yanada qaror topib boraveradi. Yoshlar esa ilm olish, hunar egallash payida bo'ladi.

Aziz bolajonlar, shoir Xudoyberdi Komilovning «Kim qanday uxlaydi?» kitobchasini, albatta, topib o'qing, zavqlaning, badiiy tasavvuringizni boyiting. O'ylaymanki, mutolaa uchun ajratgan vaqtingizga aslo achinmaysiz.

O'ILANIM YAXSHI BO'ILADI

Yaqinda shoir bobomiz Alisher Navoiyming biz bolalar uchun mo'ljallangan «Hikmatlar» kitobini maroq bilan o'qib chiqdim.

O'qiganlarim asosida drama to'garagi a'zolari bilan birgalikda bobomizning hayoti va ijodiga doir «Alisher Navoiy - ulug' o'zbek shoiri» nomli sahna ko'rinishi tayyorladik. Men boshlovchilik qilgan bu tadbirda maktabimiz o'quvchilari raqslari, qo'shiqlari bilan qatnashishdi. Bobomizning g'azallari, ruboiylaridan o'qidilar.


Sahna ko'rinishlari orqali Jahongir G'apbarov - bola Alisher, Ibrat Jumadullayev - tog'asi rolida chiqib, ularning o'zaro hurmat, e'tiborlarini ko'rsatishdi. Muhammadali Zokirjonov - Husayin Mirzo, Aziz Hojina-

zarov - o'smir Alisher obrazini jonlantirib, ularning chin do'stligini isbotlashdi. Ma'mur Qosimjonov - Lutfiy bobo, Muhammadali No'monov - keksa Alisher Navoiy rolida ustoz va shogirdning o'zaro ahil munosabatlarini chiroyli tarzda namoyon etdilar.

Tadbirni tayyorlashda yordam bergan drama to'garagimiz rahbari, o'qituvchimiz Ro'zigul Mirzayevadan mehmonlarimiz, ota-onalar, o'qituvchilar-u o'quvchilar juda mamnun bo'ldilar.

Dilbar PRIMOVA,
Toshkent shahridagi 296-maktab
o'quvchisi, yosh muxbir

KROSSVORD



Bo'yiga:

1. Savdo-sotiq joyi. 2. Sabzavot. 3. Yoqilg'i turi. 4. Kun (antonimi). 6. Yog'du. 7. Doimo yashil daraxt. 11. Duradgor asbobi. 12. Tuksiz gilam. 14. Dasht. 16. GazJama. 17. Din. 18. Hunarmand. 19. Turk puli. 21. O'n ikki oy. 23. Litva puli.

Eniga:

3. Ko'chma uy. 5. Afrikadagi davlat. 8. Namak. 9. Olmoniyadagi kon. 10. Tunis puli. 12. Bo'lak. 13. Son ko'rsatkich. 15. Uzun daryo. 17. Zehn. 20. Bahor o'ti. 22. Nalog (o'zbekcha). 24. Og'izdagi a'zo. 25. Maxfiy narsa. 26. Buxoro viloyatidagi tuman. 27. Don qurti.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

1. Shunday bir ichimlik bor, teskari o'qisangiz, «qora» chiqadi. U nima?

2. Birorta ham daryo kesib o'tmagan mamlakat.

O'ZINGNI SINAB KO'R!

3. Yaxshi so'z - qaymoq, Yomon so'z - ...?

Maqollarni yaxshi bilsangiz, nuqtalar o'rnidagi so'zni darhol topasiz.

4. Ona tilidan test.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchani toping!

| So'z | O'zak | Qo'shimchalar | |
|-------------|-------|---------------|-------------------------------|
| | | So'z | So'z o'z-yasovchi gartiruvchi |
| bichiqchiga | bich | -iq, -chi | ..? |

Tong yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092

Adadi - 71367

Buyurtma N: J 1153